JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Abdunazarova Dilshoda Akromovna

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdinazarovadilshoda91@gmail.com

ORCID: 0009-0008-1088-4467

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro moliyaviy tizimda prudensial nazoratning ahamiyati, uning nazariy va me'yoriy asoslari, xususan Bazel qoidalari doirasida shakllangan standartlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan Bazel I, Bazel II va Bazel III me'yoriy paketlarining mazmuni, ularning bank kapitalini boshqarish, likvidlikni ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Maqolada xalqaro tajribaga tayangan holda prudensial nazorat standartlarini milliy moliya tizimiga tatbiq etish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, xususan O'zbekiston sharoiti uchun amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bazel qoidalarining tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish madaniyatini rivojlantirish va shaffoflikni kuchaytirishdagi ahamiyati asoslangan holda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: prudensial nazorat, Bazel standartlari, moliyaviy barqarorlik, bank risklari, kapital yetarliligi, likvidlik, xalqaro bank nazorati.

Abstract. This article examines the significance of prudential supervision in the international financial system, focusing on its theoretical and regulatory foundations, particularly the standards developed within the Basel framework. The author provides a scientific analysis of the Basel I, Basel II, and Basel III regulatory packages, emphasizing their role in bank capital management, liquidity provision, and the enhancement of financial stability. Based on international experience, the article offers practice-oriented recommendations for the implementation of prudential supervision standards within national financial systems, with particular attention to Uzbekistan. The importance of the Basel rules in improving the operational efficiency of commercial banks, strengthening risk management culture, and enhancing transparency is comprehensively substantiated.

Key words: prudential supervision, Basel standards, financial stability, banking risks, capital adequacy, liquidity, international banking supervision.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение пруденциального надзора в международной финансовой системе, его теоретические и нормативные основы, а также стандарты, сформированные в рамках правил Базеля. Автором с научной точки зрения раскрыто содержание нормативных пакетов Базель I, Базель II и Базель III, а также их роль в управлении банковским капиталом, обеспечении ликвидности и укреплении финансовой стабильности. На основе международного опыта представлены практико-ориентированные рекомендации по применению стандартов пруденциального надзора в национальной финансовой системе, в частности в Республике Узбекистан. Обосновано значение базельских правил в повышении эффективности деятельности коммерческих банков, развитии культуры управления рисками и укреплении прозрачности.

Ключевые слова: пруденциальный надзор, стандарты Базеля, финансовая стабильность, банковские риски, достаточность капитала, ликвидность, международный банковский надзор.

KIRISH

Bugungi global moliyaviy tizimda banklar faoliyati ustidan samarali nazoratni tashkil etish, tavakkalchiliklarni oqilona boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarga asoslangan prudensial nazorat mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan prudensial talablar va standartlar xalqaro moliya tashkilotlari, markaziy banklar hamda nazorat organlari faoliyati uchun muhim me'yoriy asoslardan biri hisoblanadi.



Bazel qoidolari tarixan uch bosqichda rivojlangan. 1988-yilda qabul qilingan Bazel I standartlari asosan bank kapitali yetariligi aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi bank faoliyatidagi risk darajasiga mos ravishda minimal kapital talablarini belgilashdan iborat edi [1]. Keyinchalik, 2004-yilda qabul qilingan Bazel II doirasida kapital yetariligi qo'shimcha ravishda risklarni baholash va nazorat qilishning yanada mukammal mexanizmlari joriy etildi. Ushbu bosqichda uch ustunli yondashuv, ya'ni kapital talablarining yetariligi, nazorat jarayonlarini kuchaytirish hamda axborotni oshkor etish tamoyillari shakllantirildi [2].

2008-yilgi global moliyaviy inqiroz tajribasi prudensial nazorat standartlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi va natijada 2010-yilda Bazel III standarti qabul qilindi [3]. Mazkur standart doirasida likvidlik ko'rsatkichlari, kontrtsiklik kapital buferlari, leveraj koeffitsienti hamda tizimiy ahamiyatga ega banklar uchun qo'shimcha talablar joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi ham moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va tijorat banklari faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida Bazel talablarini bosqichma-bosqich joriy etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kapital yetariligi, likvidlik va risklarga bardoshlilikni ta'minlashga qaratilgan qator prudensial me'yorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda Bazel qoidolari asosiy metodologik mezon sifatida qo'llanilmoqda [6]. Jumladan, banklar uchun birinchi darajali kapital (CET1) hamda umumiy kapital yetariligi ko'rsatkichlari (CAR) Bazel III talablariga bosqichma-bosqich yaqinlashtirilmoqda. Shuningdek, stress-testlar o'tkazish va risklarni ichki baholash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy choralar izchil amalga oshirilmoqda [7].

Mazkur maqolada Bazel standartlarining mazmuni va maqsadi, ularning prudensial nazorat tizimidagi o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida ushbu standartlarning O'zbekiston bank tizimiga tatbiqi baholanib, ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prudensial nazorat va uning xalqaro standartlarda namoyon bo'lishi, xususan Bazel qoidolari doirasida, ko'plab xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I (1988-yil), Bazel II (2004-yil) va Bazel III (2010-yil) me'yoriy hujjatlari tijorat banklari faoliyatida kapital yetariligi ta'minlash, likvidlikni boshqarish hamda bank risklarini baholash jarayonlarida muhim normativ asos sifatida qaraladi [1–3].

Xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank) o'z tahliliy hisobotlarida prudensial nazorat standartlarining moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi roliga alohida e'tibor qaratadi [4–5]. Ushbu manbalarda prudensial talablarning izchil joriy etilishi bank tizimining makroiqtisodiy shoklarga nisbatan barqarorligini oshirishi va moliyaviy tizimda ishonch muhitini mustahkamlashi ta'kidlanadi.

Milliy darajada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'nggi yillarda banklarning kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlarini baholashda Bazel talablariga mos prudensial me'yorlar joriy etilgani qayd etiladi [6]. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlikka bag'ishlangan yillik hisobotlari ushbu islohotlarning amaliy natijalari va asosiy rivojlanish tendensiyalarini tizimli ravishda yoritib beradi.

Shuningdek, mahalliy olimlar A.A. Sultanov [7] hamda E.B. Ibrohimova [8] o'z ilmiy ishlarida Bazel standartlarining nazariy mohiyati va ularni O'zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini atroflicha tahlil qilganlar. Mazkur tadqiqotlarda Bazel talablarining joriy etilishi banklarda risklarni boshqarish madaniyatini rivojlantirishga va prudensial nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani asoslab berilgan.

Yana bir muhim manba sifatida EY (Ernst & Young) hamda Yevropa Markaziy banki tomonidan tayyorlangan hisobotlarda Bazel standartlarining bank strategiyasi, kapitalni rejalashtirish va risklarni tahlil qilish jarayonlariga ta'siri chuqur tahlil qilingan [9–10]. Ushbu tadqiqotlar Bazel qoidalarining bank boshqaruvi sifatini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, prudensial nazoratning xalqaro standartlarga mos tashkil etilishi bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarga tayyorgarlik darajasini oshirish hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim va hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda deduktiv yondashuv usullaridan foydalanildi. Xalqaro va milliy manbalarni chuqur o'rganish asosida Bazel qo'mitasining rasmiy hujjatlari, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank) tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari hamda bank sektoriga oid statistik ma'lumotlar tadqiqotning asosiy axborot bazasini tashkil etdi.



Tadqiqot doirasida Bazel standartlarining mazmuni va ularning xalqaro amaliyotda tatbiq etilish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar O'zbekiston bank tizimi amaliyotidagi holat bilan solishtirilib, milliy moliya tizimi xususiyatlariga mos ravishda baholandi. Ushbu yondashuv Bazel talablarining amaliy samaradorligini aniqlash va ularni milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prudensial nazorat bank tizimining barqarorligi, shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim institutsional vosita hisoblanadi. Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalariga muvofiq, har bir davlat o'z milliy moliyaviy tizimida risklarni samarali boshqarish uchun xalqaro tajribaga asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etishi maqsadga muvofiqdir [11]. Bazel qoidalari aynan shunday mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi me'yoriy asos sifatida keng e'tirof etiladi.

Bazel I doirasida asosan kapital yetarliligi indikatorlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Bazel II standartlari kredit, bozor va operatsion risklarni kompleks baholash imkoniyatini yaratdi. Bazel III esa bank tizimini global moliyaviy inqirozlar ta'siridan himoyalashga qaratilgan bo'lib, unda likvidlikni boshqarish, kontrtsiklik yondashuvlar hamda stress-senarilar orqali nazoratni kuchaytirish mexanizmlari nazarda tutilgan. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, ushbu talablar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda [12].

O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan 2020-yildan boshlab prudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, tijorat banklarining kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, konsentratsiya ko'rsatkichlari, affillangan shaxslar bilan operatsiyalar, muammoli aktivlar (NPL) ulushi hamda stress-test natijalari asosida baholash tizimi joriy etildi [13]. 2023-yil yakunlariga ko'ra, bank sektorida kapital yetarliligi koeffitsienti o'rtacha 17,1 %, birinchi darajali kapital koeffitsienti esa 14,3 % ni tashkil etgani qayd etildi [14]. Mazkur ko'rsatkichlar Bazel III minimal talablaridan yuqori bo'lib, bank tizimining barqarorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, risklarni baholash va boshqarish jarayonlarini yanada raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha salohiyat mavjudligi aniqlanadi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Likvidlikni qamrab oluvchi koeffitsient (LCR) va Barqaror moliyalashtirishni ta'minlash koeffitsienti (NSFR) O'zbekiston bank tizimida joriy etilish bosqichida bo'lib, ularni hisoblash va monitoring qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan, ayrim banklarda yuqori likvid aktivlar tarkibini baholash metodologiyasini aniqlashtirish orqali prudensial nazorat samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud [15]. Bu yo'nalishdagi ishlar nazorat tizimining institutsional sifatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy va institutsional barqarorligini ta'minlashda Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan qator prudensial talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu talablarning asosiy yo'nalishlari va ko'rsatkichlari keyingi jadvalda tizimli ravishda keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Bazel standartlari bo'yicha asosiy prudensial talablar¹

№	Talab nomi	Izoh	Bazel me'yori (talabi)
1	Kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR)	Riskka moslashtirilgan aktivlarga nisbatan umumiy kapital ulushi	≥ 8 %
2	Asosiy kapital yetarliligi koeffitsienti (CET1 Ratio)	Yuqori sifatli asosiy kapitalning riskka moslashtirilgan aktivlarga nisbati	≥ 4,5 %
3	Birinchi darajali kapital yetarliligi koeffitsienti (Tier 1)	CET1 va qo'shimcha 1-darajali kapitalning riskka mos aktivlarga nisbati	≥ 6 %
4	Jami kapital yetarliligi koeffitsienti (Total Capital)	Tier 1 va Tier 2 kapitallarning riskka moslashtirilgan aktivlarga nisbati	≥ 8 %
5	Likvidlikni qamrab oluvchi koeffitsient (LCR)	30 kunlik kutilayotgan sof chiqimlarni qoplay oladigan yuqori likvid aktivlar ulushi	≥ 100 %
6	Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR)	1 yil va undan ortiq muddat uchun barqaror moliya manbalari ulushi	≥ 100 %
7	Leveraj koeffitsienti (Leverage Ratio)	Haqiqiy kapitalning umumiy ekspozitsiyaga nisbati (risk og'irligidan qat'i nazar)	≥ 3 %
8	Kontrtsiklik kapital buferi (CCyB)	Moliyaviy siklning yuqori bosqichlarida shakllantiriladigan qo'shimcha kapital zahirasi	0–2,5 %

1 Basel Committee on Banking Supervision. (2011). Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. Bank for International Settlements (BIS). URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs189.htm>



No	Talab nomi	Izoh	Bazel me'yori (talabi)
9	Yirik ekspozitsiyalar bo'yicha limit (Large Exposure)	Bitta mijozga to'g'ri keladigan maksimal kapital ulushi	≤ 25 %
10	Bozor riskini hisoblash doirasi (Market Risk Framework)	Bozor risklarini baholashda standart yoki ichki modellarni qo'llash	Bazel II va Bazel III
11	Operatsion riskni baholash	Bazel III talablariga muvofiq standartlashtirilgan yondashuv	Joriy etilgan

Yuqorida keltirilgan jadvalda har bir prudensial qoida bo'yicha aniq va ishonchli me'yoriy ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, ular banklarning kapital yetarliligi (CAR, Tier 1), likvidlik darajasi (LCR, NSFR), kredit siyosati (LDR), shuningdek kredit risklari bilan bog'liq cheklovlar, jumladan muammoli kreditlar ulushi (NPL) va yakka qarz oluvchiga nisbatan limitlar kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu qoidalarning amaliyotda samarali tatbiq etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, mijozlar ishonchini oshirish hamda bank tizimidagi tizimli risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bazel standartlari bank faoliyatini xalqaro me'yorlar asosida baholash, solishtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham mazkur standartlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bank nazoratining sifatini oshirish va bozor intizomini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar va empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, qator mamlakatlarda Bazel standartlari (Bazel I, Bazel II va Bazel III) to'liq yoki qisman joriy etilgan. Keyingi jadvalda ayrim mamlakatlarda Bazel andozalarining qabul qilinish darajasi va ularning amaliyotga tatbiq etilish holati tizimli ravishda aks ettiriladi (2-jadval).

2-jadval. Bazel standartlarining mamlakatlar bo'yicha joriy etilishi²

No	Mamlakat nomi	Joriy qilingan standartlar	Joriy etish holati	Boshlanish sanasi
1	AQSh (USA)	Bazel I, II, III	To'liq	2004-yil (II), 2013-yil (III)
2	Buyuk Britaniya (UK)	Bazel I, II, III	To'liq	2007-yil (II), 2013-yil (III)
3	Germaniya	Bazel I, II, III	To'liq	2007-yil (II), 2013-yil (III)
4	Yaponiya	Bazel I, II, III	To'liq	2007-yil (II), 2013-yil (III)
5	Fransiya	Bazel I, II, III	To'liq	2007-yil (II), 2013-yil (III)
6	Kanada	Bazel I, II, III	To'liq	2008-yil (II), 2013-yil (III)
7	Hindiston	Bazel I, II, III	Bosqichma-bosqich	2009-yil (II), 2013-yil (III)
8	Rossiya	Bazel I, II, III	Qisman	2008-yil (II), 2016-yil (III)
9	Xitoy	Bazel I, II, III	Bosqichma-bosqich	2008-yil (II), 2013-yil (III)
10	Braziliya	Bazel I, II, III	To'liq	2013-yil (III)
11	Janubiy Koreya	Bazel I, II, III	To'liq	2009-yil (II), 2013-yil (III)
12	Turkiya	Bazel I, II, III	Bosqichma-bosqich	2012-yil (II), 2015-yil (III)
13	Qozog'iston	Bazel II, III	Qisman	2014-yil (II), 2019-yil (III)
14	O'zbekiston	Bazel II, III	Bosqichma-bosqich	2020-yildan boshlab

Yuqorida keltirilgan jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Bazel standartlari dunyoning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tomonidan to'liq yoki qisman joriy etilgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Kanada kabi rivojlangan davlatlar ushbu standartlarni to'liq qabul qilgan bo'lib, bu bank tizimlarida risklarni baholash va boshqarish jarayonlarining yuqori darajadagi shaffofligi hamda barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va O'zbekiston kabi mamlakatlarda esa Bazel II va Bazel III standartlari qisman va bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu holat mazkur davlatlarda xalqaro prudensial talablarni milliy moliyaviy tizim xususiyatlariga moslashtirish jarayoni izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bazel standartlarini joriy etish muddatlarining mamlakatlar kesimida farqlanishi ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliyaviy infratuzilmasi va institutsional imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

2 Basel Committee on Banking Supervision. Implementation of Basel Standards. Bank for International Settlements (BIS). URL: <https://www.bis.org/bcbis/implementation.htm>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). Yillik hisobot (Annual Report 2022). URL: <https://www.cbu.uz>

International Monetary Fund (IMF). (2021–2023). Financial Sector Assessment Program (FSAP) Reports. URL: <https://www.imf.org>



Xususan, O'zbekistonda Bazel II va Bazel III standartlari 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Ushbu jarayon milliy bank tizimini mustahkamlash, prudensial nazorat sifatini oshirish hamda mamlakat moliyaviy tizimini xalqaro moliyaviy arxitektura bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro moliyaviy nazorat tizimida muhim o'rin tutuvchi institutlardan biri bo'lgan Bazel qo'mitasi hamda uning tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlari har tomonlama tahlil qilindi. Ushbu standartlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni samarali boshqarish qobiliyatini rivojlantirish va bank faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida Bazel standartlarining kapital yetarliligi, likvidlikni boshqarish, moliyalashtirish barqarorligi hamda risklarni baholashga oid asosiy mezonlari atroficha ko'rib chiqilib, turli mamlakatlar tajribasi asosida ularning joriy etilish jarayoni va darajasi qiyosiy tahlil qilindi. O'zbekistonda Bazel II va Bazel III standartlarining 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilishi milliy bank tizimida olib borilayotgan institutsional va prudensial islohotlarning muhim bosqichi sifatida baholanib, ushbu jarayon bank tizimini xalqaro moliyaviy me'yorlarga moslashtirish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgani aniqlandi. O'tkazilgan tahlillar va olingan xulosalar asosida O'zbekiston bank tizimida prudensial nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida Bazel standartlarini to'liq joriy etish bo'yicha ishlarni tizimli va izchil davom ettirish, banklar uchun joriy etilayotgan prudensial me'yorlarning mazmuni, ularni hisoblash usullari va tahlil mexanizmlariga doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida moliyaviy institutlarda malaka oshirish va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish, Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan hisobot shakllarini xalqaro standartlarga muvofiq yangilash va raqamlashtirish orqali nazorat jarayonlarining samaradorligini oshirish, shuningdek Bazel standartlariga asoslangan ichki risklarni baholash tizimini (IRB – Internal Ratings-Based Approach) bosqichma-bosqich joriy etish orqali banklarning risk profilini yanada aniq va chuqur baholash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq ekani asoslab berildi. Umuman olganda, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kapital yetarliligini mustahkamlash va likvidlik barqarorligini ta'minlashda Bazel III doirasida belgilangan LCR va NSFR koeffitsientlari talablariga izchil rioya etilishi bank tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ilmiy xulosa sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. (1988). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel I). Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs04a.htm>
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2004). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II). Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs107.htm>
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2011). Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs189.htm>
4. International Monetary Fund (IMF). (2020). Financial Sector Assessment Program: Prudential Regulation and Supervision Assessment. URL: <https://www.imf.org/en/Publications>
5. World Bank. (2021). Global Financial Development Report: Financial Stability and Prudential Regulation. Washington, DC.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). 2022-yil uchun moliyaviy barqarorlik bo'yicha hisobot. Toshkent: Markaziy bank nashri. URL: <https://cbu.uz>
7. Sultanov A.A. (2021). Prudensial nazorat va uning bank tizimidagi o'rni. Moliya va bank ishi, №4. Toshkent.
8. Ibrohimova E.B. (2022). Bazel standartlarining O'zbekiston bank amaliyotida tatbiqi. Iqtisodiy tahlil va amaliyot, №2.
9. Ernst & Young. (2020). The Impact of Basel III on Bank Strategy, Risk and Capital Planning. EY Global Financial Services.
10. European Central Bank. (2023). Banking Supervision Annual Report. Frankfurt am Main.
11. International Monetary Fund (IMF). (2022). Financial Soundness Indicators: Compilation Guide. Washington, DC. URL: <https://www.imf.org>
12. Basel Committee on Banking Supervision. (2011). Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. Bank for International Settlements. URL: <https://www.bis.org>
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). Tijorat banklari faoliyatini prudensial nazorat qilish qoidalari. URL: <https://www.cbu.uz>
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Yillik hisobot (CBU Annual Report 2023). URL: <https://www.cbu.uz>
15. Bank for International Settlements (BIS). (2023). Liquidity Coverage Ratio Disclosure Standards. Basel Committee Publications. URL: <https://www.bis.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
